

O'qitiladigan fanlar

Bakalavriyat bosqichida

Nº	Fanning nomi	Fan haqida qisqacha ma'lumot
1.	Gidromeliorativ tizimlardan foydalanish	Sug'orish va zah qochirish tarmoqlari, gidrotexnika inshootlaridan oqilona foydalanish turlari, tuproq meliorativ sharoitlari uchun suvni to'g'ri taqsimlash hamda yerlar meliorativ xolatini yaxshilash hisoblari o'rganiladi.
2	Resurstejamkor sug'orish texnologiyalari	Turli xil sug`orish tizimlari orasida mavjud hudud uchun resurstejamkor texnologiyalarni tanlash, ulardan foydalanish va texnik hizmat ko'rsatishni o`rgatadi, shuningdek har bir sug`orish usullarini yani tomchilatib, yomg'irlatib, markaziy sug`orish tizimi, diskret sug'orish tizimlaridan foydalanishni o'rgatadi.
3	Gidromeliorativ tizimlarni loyihalash va boshqarish	Daryo, magistral kanal, ichki kanallar va boshqa gidromeliorativ tizimlarni loyihalash, uni eksplutatsiya qilish va yillar davomida boshqarishni o'rgatadi.
4	Meliorativ tizimlardan foydalanish	Sug'oriladigan yerdagi melioratsiya tizimlarining ishlashi, turlari, tuzilishi xamda tuproq turiga mos ravishda zah qohsiris tizimlarini loyihalashni o'rganishdan iborat.
5	Sug`orish tartiblarini modellashtirish	Sug`orish lozim bo'lgan dalalarni, dalaning ichki qismlari sug`orish ketmакetliklarini modellashtirishni o'rgatadi.
6	Gidromeliorativ tizimlarni avtomatlashtirish	Gidropost, turli xil suv o'lchan qurilmalari va boshqa gidromeliorativ tizimlarni raqamlashtirish va avtomatlashtirishni o'rgatadi.
7	Suvdan foydalanish rejası asosida ekinlarni hosildorligini bashorati	Vegetatsiya davrida suvdan foydalanish rejasini optimallashtirgan holda ekin hosildorligini oshirishni o'rgatadi.
8	Irrigatsiya va drenaj	Sug`orish davrida filtratsiya bo'lgan suv resurslarini drenajlarga yo'naltirish, drenajlarni loyihalash, hizmat ko'rsatishlarni o'rgatadi.
9	Sug`orish tizimlarini loyihalash	Magistral kanaldan daladagi sug`orish texnologiyasiga chon bo'lgan ketma-ketliklar, tomchilatib, yomg'irlatib, markaziy pivot va boshqa tizimlarni loyihalash o'rgatiladi

Magistratura bosqichida

1 Resurstejamkor innovatsion sug'orish texnologiyalari	Turli xil innovations texnologiyalardan foydalangan holda o'simlikni sug'orish jarayonida suv resurslarini iqtisod qilish. Sug'orish tizimlari orasida mavjud hudud uchun resurstejamkor texnologiyalarni tanlash, ulardan foydalanish va texnik hizmat ko'rsatishni o`rgatadi, shuningdek har bir sug'orish usullarini yani tomchilatib, yomg'irlatib, markaziy sug'orish tizimi, diskret sug'orish tizimlaridan foydalanishni o`rgatadi.
2 Meliorativ rejim	Sug'orish meyori, sug'orish ketma-ketligi, tuproq mexanik tarkibi, o'simlikni svuga bo'gan talabi orgatiladi. Bir vegetatsiya davrida ma'lum bir sug'orish obyektidagi olib boriladigan meliorativ ishlar to'liqligicha o'rgatiladi.
3 Gidromelioratsiya tizimlaridan foydalanishda konsalting hizmati	Sug'oriladigan yerlardagi melioratsiya tizimlarining ishlash nazariysi, turlari va tuzilishi xamda ma'lum tuproq-melioratsiya sharoitlari uchun ularni to'g'ri loyihalash, qurish va ekspluatatsiya qilishni o'rgatishdan iborat.
4 Meliorativ tizimlardan foydalanish	Sug'oriladigan yerlardagi melioratsiya tizimlarining ishlashi, turlari, tuzilishi xamda tuproq turiga mos ravishda sug'orish tizimlarini loyihalashni o'rganishdan iborat.
5 Suv resurslari va undan tejamli foydalanish	Mutaxassislarni suv resurslari va ulardan tejamli foydalanish usullari nazariyi va amaliy o'rgatiladi
6 Amaliy gidrometriya	Magistrarda mantiqiy, algoritmik, abstrakt fikrlash, irrigatsiya va melioratsiya tizimlaridan foydalanishda gidrologik ko'rsatkichlarni o'lchash xizmati taffakkurini shakllantirish va rivojlantirish, o'zining fikr-mulohaza, xulosalarini asosli tarzda aniq bayon etish o'rgatiladi
7 Gidromeliorativ tizimlarni modernizatsiyalash	Sug'oriladigan erlar meliorativ monitorinigi va kadastrini modernizatsiyalash, jumladan GIS texnologiyasidan foydalanish va zamonaviy EHM dasturlarini tuzish xamda xar xil tuproq-meliorativ rejimlarini to'g'ri o'rganish, suv xo'jaligi va melioratsiya sohasida qo'llaniladigan turli mahsus avtomat qurilmalari, vosita-jixozlarining turlari, tuzilishi, ishlatilishi ko'lami, hisoblash asoslari o'rgatiladi.
8 Gidromeliorativ tizimlarni avtomatlashtirish	Magistrarda gidroavtomatlar turlari, vosita-jihozlari, qurulmalari, nazariy asoslari, yuqori, pastki va aralash b'ef gidroavtomatlar tizimlari, ularga qo'yiladigan talablar, ijobjiy va salbiy tomonlari, gidroavtomatika tizimlaridan foydalanish qoidalari, telemexanika tizimi turlari va ulardan foydalanish, suvdan foydalanish rejalarini gidroavtomatika usullari yordamida joriy etish o'qitiladi